



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari director va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institute Maktabgacha ta'lim menejmenti kafedrası dotsenti v.b.p.f.f.d.(PhD)  
Email: [raxshona@list.ru](mailto:raxshona@list.ru)*

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI KASBIY RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

**ANNOTATSIYA:** Maqolada MTTda pedagog kadrlarini kasbiy va shaxsiy rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirish yo'llari, mustaqil ta'lim olish tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *pedagog, tarbiyachi, ta'lim-tarbiya, rivojlantirish, salohiyat, uzluksiz o'qish, malakasini oshirish, qayta tayyorlash*

**АННОТАЦИЯ:** В статье освещается вопросы профессионального и личностного развития педагогов в ДОО, пути повышения их интеллектуального потенциала, совершенствования системы самостоятельного образования.

**Ключевые слова:** *педагог, воспитатель, развитие, потенциал, непрерывное обучение, повышение квалификации, переподготовка*

**ANNOTATION:** The article highlights the issues of professional and personal development of teachers in preschool educational institutions, ways to increase their intellectual potential, improve the system of independent education/

**Keywords:** *teacher, educator, potential? Lifelong learning, advanced training, retraining*

Hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta'lim tizimiga berilayotgan e'tibor, pedagog va tarbiyachilarning faoliyatini yuqori baholanayotganligi soha vakillarining oldiga ko'plab vazifalarni qo'yimoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni bugungi kunda MTTda tarbiya olib o'sayotgan avlod ijobiy xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini, ilmiy bilim asoslarini, kasb-hunar malaka va ko'nikmalarini har tomonlama puxta egallab borishini talab qiladi. Buning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimlar bilan qurollantirish milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni tiklash, jahon madaniyati, milliy madaniyatimiz durdonalari bilan tanishtirish, ularni jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdek vazifalar qo'yildi. Davlat ahamiyatiga molik bunday vazifani amalga oshirishda MTTlari pedagog kadrlarining o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni, shuningdek 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori, 2017 yil maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qaroridagi zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta'lim tizimi mazmunini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi va pedagoglarni shaxsiy va kasbiy rivojlantirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishini talab qiladi.

MTT tarbiyachi va pedagoglari maktabgacha yoshdagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang'ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy ahloq, o'z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli manosabatda bo'lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, haqiqatg'oylik, adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga hurmat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalarni mehnati natijalarini asrab-avaylash kabi ahloqiy sifatlarni tarbiyalaydi.

Shu boisdan bugungi kunda nihoyatda tezlik bilan rivojlanayotgan fan va texnologiyalar davrida tarbiyachi va pedagoglarni shaxsiy va kasbiy jihatdan rivojlanishlariga doimiy ehtiyoj yuqori hisoblanadi.

MTT pedagog va tarbiyachilarni rivojlantirish shaxs qadriyatlarini o'zgartirish bo'lib, u pedagogning bilim va ko'nikmalarini o'zgartirishni talab etadi.

Pedagog-tarbiyachilarni rivojlantirish — ishchi kuchi sifatini oshirishga qaratiladi. Ishchi kuchi sifati iqtisodiy kategoriya sifatida insonning mehnatga layoqatini shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan shaxs va jamiyat, xodim va ish



beruvchi o'rtasidagi munosabatlarni hamda ushbu munosabatlarning таълим-тарбия faoliyatida namoyon etish darajasini ifoda etadi. Mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan inson xususiyatlari muayyan tarkibni tashkil etadi. Quyidagilar bu tarkib qismlaridir:

- qiziqish (motivatsiya) xususiyatlari;
- kasbiy-malaka xususiyatlari;
- aqliy (intellektual) xususiyatlar;
- nufuz (demografik) xususiyatlari, salomatlik.

Ushbu xususiyatlar o'zaro bog'liq bo'lib, bevosita ishchi kuchiga, sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachi va pedagoglarni rivojlantirish zarurati o'z vaqtida olingan bilimlar, egallangan ko'nikmalar eskirib qolishi jarayoni g'oyat tezlashib ketganligi bilan bog'liqdir. Ilm-fan yutuqlari, yangiliklardan muttasil xabardor bo'lish, davr bilan baravar qadam tashlashga intiladigan har bir mutaxassis qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kursini tugallashi bilan amalda yana o'qishni boshlashi talab etilmoqda. Bilimlarning bu darajada jadallik bilan eskirib borayotganligi zamonaviy ta'lim tashkilotlarni uzluksiz o'qiydigan MTT sifatida faoliyat ko'rsatishini doimiy zaruratga aylantirdi. Pedagog tarbiyachilarni rivojlantirishda hozirgi vaqtda ikki tendensiya ko'zga tashlanmoqda.

1. Bilimlarni ularning aniq shakliga — hujjatlar, yo'riqnomalar, ma'lumotlar bazasi va hokazolarga muvofiqlashtirish. Mutaxassislar buni “G'arb tendensiyasi”, deb ham atashmoqda. Chunki Yevropa va Amerika Qo'shma Shtatlarida kadrlarni rivojlantirish dasturlarida xuddi shunga urg'u berilmoqda.

2. Bilimlar faqat ayrim mutaxassis va rahbarlar guruhi tomonidan emas, balki butun pedagog xodimlar tomonidan muntazam ravishda egallab borilishini ta'minlash “Sharq tendensiyasi” deb ta'riflanib, bu ko'proq Yaponiyaga xosligi ko'zga tashlanadi.

Pedagoglarni uzluksiz o'qitish:

- yangi pedagog va tarbiyachilar tayyorlash;
- malakali pedagog va tarbiyachilarni qayta tayyorlash;
- tarbiyachilarni ikkinchi (turdosh) kasblarga o'qitish;
- pedagog va tarbiyachilarni malakasini oshirishni o'z ichiga oladi.

Pedagog tarbiyachilarni rivojlantirish inson salohiyatini shakllantirish va uni muttasil oshirib borishga da'vat etadi. Bu jarayon shunday tashkil etilishi kerakki, inson butun mehnat faoliyati davomida kasbiy ta'lim va qayta tayyorlash orqali o'z bilimlari va ko'nikmalarini takomillashtirib borishga intilishi kerak. Pedagog tarbiyachilarni rivojlantirish quyidagi shartlarga bog'liqdir:

- MTTning pedagog tarbiyachilarni bugungi ishida va kelajakni ko'zlab rivojlantirishga ehtiyoji;



- Pedagog tarbiyachilarni rivojlantirish salohiyati, ya'ni ularning hali foydalanilmagan bilimlari, qobiliyatlari mavjudligi;
- Pedagog tarbiyachilarning rivojlanishga ehtiyoji;
- Pedagog tarbiyachilarni rivojlantirish imkoniyati, ya'ni moliyaviy, mehnat, texnika va boshqa resurslarning mavjudligi.

Pedagog tarbiyachilarning rivojlanishga ehtiyoji deyilganda xodimlarning o'z MTT maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda o'z bilimi, ko'nikmasini oshirish, kasbiy imkoniyatlariga yangicha qarashni ongli anglangan zarurat sifatida tushunishi anglanadi. Rivojlanishga ehtiyoj hamisha ham o'zgarishlarga mos tushavermaydi. Yuzaga chiqqan muammolarni hal etish uchun hamisha ham birgina tarbiyachilarni o'qitishning o'zi kifoya kilmaydi, balki tashkiliy tizimda o'zgarishlar ham talab etiladi. Ular ishga qiziqtirish va rag'batlantirish tizimini, rahbarlik uslubini, ishni tashkil etish marketingini, mas'uliyatni qayta taqsimlashni va boshqa masalalarni o'zgartirish zaruratini ham tug'dirishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish quyidagilarni ko'zda tutadi:

- malakali kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiyaning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari – bola o'z rivojlanishi uchun eng ahamiyatli sohalarda va jihatlarda kattalar va tengdoshlar bilan keng hissiy-amaliy o'zaro muomala tajribasini oladigan joydir, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola o'z ehtiyojlari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq holda individual rivojlanishiga bo'lgan huquqini shu jarayon uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiradi; pedagog o'zining kasbiy va shaxsiyat fazilatlarini rivojlantiradi, rahbar bolalar va pedagoglar faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi; MTT ota-onalarning o'z bolalari uchun ko'zda tutgan kelajagi yuzasidan

fikrlari xususiyatlarini inobatga oladi va ularni bolalar bilan, hamda ta'limiy jarayonning barcha ishtirokchilari bilan konstruktiv-hamkorlik munosabatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltiradi. Bugungi kunda ta'lim sohasida turli xususiyatdagi, yo'nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko'p innovatsiyalar mavjud, katta yoki kichik ko'lamli davlat islohotlari o'tkaziladi, ta'limning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritiladi. Hozirgi vaqtda MTTga bolalar bilan ilg'or innovatsion texnologiyalar va yangi dasturlar asosida ishlay oladigan pedagog zarur. U pedagogik jarayonning ijodkori bo'lishi, moslashuvchan fikrlashga ega bo'lishi, innovatsiyalardan mohirona foydalanishi lozim. Ishning dolzarbligi shundan iboratki, oxirgi paytda maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion texnologiyalarning qo'llanishi masalasi tobora ko'proq ko'tarilmoqda, chunki ta'lim tashkilotining ishiga innovatsiyalarning joriy etilishi – maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va isloh etishning eng muhim shartidir.

Pedagogik innovatsiyalar deganda pedagogik faoliyatga yangiliklar kiritish, samaradorligini oshirish maqsadida ta'limning mazmuni va texnologiyasini o'zgartirishlarni tushunish lozim. Shunday qilib, innovatsiyalar jarayoni yangilik mazmuni va tashkil etilishining shakllanishidan va rivojlanishidan iborat. Yangiliklar tashuvchisi – pedagog –innovatsiyalar jarayoni tuzilishining elementi sifatida yangilikni idrok etish, o'zlashtirish va baholash, maqsad qo'yish va maqsadga erishish birligi jihatidan tavsiflanadi. Motivatsiya (istayman), nazariy (qila olaman), texnologik (qilaman) va natija (olaman) intilishi va tayèrligining jamuljamligi maktabgacha ta'lim pedagoglarining innovatsiya uquvliligi tizimini tashkil qiladi. Shaxs tuzilishida va pedagogning innovatsion faoliyatda quyidagi muhim elementlarni ajratish mumkin:

- motivlar, fikrlash yo'nalishi, intilishlar, ular pedagogning yangilikka nisbatan ochiqqligini va uni qabul qilishini tavsiflaydi;
- ijodiy qobiliyat, masalan, kreativlik va individuallik. Faol o'z-o'zini anglash, pedagogik madaniyat, ijodiyot bazasi;
- texnologik tarkibiy qismi, u an'anaviy vaziyatlarni turli-tuman hal etish yo'llarini ta'minlaydi;
- pedagogning o'zi haqida va innovatsion jarayondagi o'rni haqida adekvat tasavvurga yordam beruvchi refleksiya.

Pedagogik jarayonning ijodkori bo'lishi. Pedagogning yangilikka intilishi, innnovatsion salohiyati va xulqi, yangilikni qabul qilishi kabi fazilatlari ham juda muhim. Yangilik kiritish fenomeni yangiliklarni joriy qilish, yuqori aqliy salohiyat, tanqidiy munosabat, muqobil yo'llarni izlashni o'ziga maqsad qilib qo'ygan pedagoglarda uchraydi. V.A. Slastenin va L.S.Podimova jamoaning innovatsion salohiyatini yangiliklarni yaratish, qabul qilish va amalga oshirish, shuningdek eski,



pedagogik samarasiz jihatlarni o'z vaqtida yo'qotish qobiliyati deb ta'riflagan. Innovatsion salohiyatning qismi bo'lgan qabul qilish yangilikni sezish, unga tayyorlik, muammo bilan tanishish, uni hal etishning mavjud yo'llarini tahlil qilish, yo'lini tanlash, qaror qabul qilish oqibatlarini qabul qilish bilan belgilanadi. Innovatsion ta'lim jarayonida pedagogik faoliyatning mazmuni an'anaviy faoliyatdan ancha farq qiladi. Birinchidan, faoliyat mazmuni va texnologiyasini ishlab chiqish faoliyati ancha murakkablashadi, chunki uning texnologik asosi tez rivojlanadi. U pedagogning maxsus malakalari, ish usullari rivojlantirilishini talab etadi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalari faoliyat sifatiga va uning mahsuliga qo'shimcha talablarni qo'yimoqda. Ikkinchidan, zamonaviy pedagogik jarayonning o'ziga xosligi shuki, pedagog markaziy o'rin tutgan an'anaviy ta'limdan farqli ravishda, bu yerda asosiy diqqat bolaga – uning faolligi, tanlovi, kreativligiga qaratiladi. Tarbiyachining muhim funksiyasi bolani o'z faoliyatida qo'llab-quvvatlash, uning olamdagi muvaffaqiyatli ilgari harakatiga yordam berish, yuzaga keluvchi muammolar hal etilishini osonlashtirish, turli-tuman ma'lumotni o'zlashtirishga yordam berish hisoblanadi. K.Rodjers, A.B.Orlov va S.Y.Romashina jahon ta'limiy hamjamiyatida shu sababli yangi atama – fasilitator – o'qishga yordam beruvchi, osonlashtiruvchi, ko'maklashuvchi shaxs paydo bo'lib, ishlatilayotganligini qayd etganlar. Uchinchidan, bilish materialini taqdim etish va tajribani berish yo'llari pedagog va bolalarning intensiv muloqotini ko'zda tutadi, pedagogning barcha bolalar bilan umumlashgan aloqasi ustuvor bo'lgan, lekin tarbiyachining alohida bolalar bilan o'zaro munosabati ancha kam bo'lgan an'anaviy ta'lim turiga nisbatan zamonaviy ta'limda ushbu ta'lim sub'ektlari o'rtasida ancha faolroq va qiziqarli o'zaro munosabatlar bo'lishini talab qiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni. T.:2019 y.
2. Q.Abdurahmonov, SH.Xolmo'minov, N.Zokirova «Personalni boshqarish». – T./ 2008 y.
3. Л.В.Поздняк, Н.Н.Лященко «Управление дошкольным образованием». Москва «Академия», 2001г.